

SHARQ FALSAFASINING MOHIYATI VA IJTIMOIIY TARAQQIYOTIDAGI ROLI

Jabborova Sayyora

Andijon davlat pedagogika instituti

MG'MAHT kafedrası o'qituvchisi

Odasheva Shahlo Boburjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti, Pedagogika fakulteti

Pedagogika yo'nalishi, 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Bugungi globallashuv davrida sharq falsafasining mohiyati va ijtimoiy taraqqiyotidagi roli yanada dolzarb bo'lib bormoqda. Sharq falsafasi insoniyat tafakkurining eng qadimiy va eng boy manbalaridan biridir. U insoniyatning ma'naviy merosi, qadriyatları, dunyoqarashi, ezgulik va adolat haqidagi tasavvurlarini shakllantirishda beqiyos o'rin tutadi. Sharq falsafasining tarixiy ildizlari mohiyati va insoniyat taraqqiyotiga qo'shgan hissasi tahlil qilinadi. Sharq falsafasi asosida shakllangan ijtimoiy qadriyatlar, siyosiy madaniyat va jamiyat taraqqiyoti o'rtasidagi bog'liqlik ilmiy jihatdan yoritiladi.

Kalit so'zlar: Zardushtiylik, Axura Mazda, Vedalar, Brahman, ontologik, gnoseologik.

Kirish

Sharq falsafasi qadimdan insonning ma'naviy o'sishi o'zini anglash va jamiyatni rivojlantirishga qaratilgan chuqur ta'limotlar majmuasidir. Sharq falsafasi insoniyat tarixida eng qadimiy davrlardan shakllangan. Uning ildizlari III-II ming yilliklarda Misr, Bobil, Hindiston va Xitoyda paydo bo'lgan diniy-falsafiy qarashlarga borib taqaladi. Zardushtiylik, Vedalar, Konfutsiy va Lao Szi ta'limotlari, Buddaviylik, keyinchalik esa Islom falsafasi va tasavvuf g'oyalari Sharq falsafasining boy xazinasini tashkil etadi. Sharq falsafasi insonni komillikka, odob-axloqqa chorlaydi, jamiyat taraqqiyotini ma'naviy qadriyatlarga asoslaydi, tabiat va inson o'rtasidagi uyg'unlikni targ'ib qiladi, ilm-fan va dinni bir-biridan ajratmaydi, balki bir butun holda ko'radi, hayotning ma'naviy jihatlarini moddiy manfaatlardan ustun qo'yadi. Sharq falsafasi insonni o'z-o'zini tarbiyalashga, jamiyatni esa ezgulik, totuvlik, adolat va ma'naviyatga asoslangan holda rivojlantirishga undaydi. Ko'pgina jamiyatlar falsafiy muammolarni ko'rib chiqishadi va boshqa jamiyatlar ishlari asosida o'z falsafiy an'analarni qurishadi. Inson tafakkurining ilk tarixiy bosqichlarida Sharq mifologiyasi dastlabki dunyoqarash shaklining mahsuli sifatida vujudga keladi. Unda insonning uni o'rab turgan olamga munosabati

ifoda etilib, atrof muhitning sir-asrorlarini bilishga intilish, tabiat qonuniyatlarini anglashda badiiy, obrazli tasavvurlar tizimining naturalistik xarakteri namoyon bo'ladi. Misol uchun, insoniyat tamadduning beshigi sanalmish Hindistonda ilk asotiriy tasavvurlar Vedalarda mavjud bo'lgan. Veda bilim, ta'limot degan ma'noni bildirib, to'rt qismdan - Rigveda, Yajurveda, Somoveda, Axtarvavedadan iboratdir.

Qadimgi Hind falsafasida borliqning asosi ruhiy ibtido-Brahman bilan bog'lanadi. Insonning maqsadi esa ruhiy poklanish va ozodlikka erishishdan iborat deb qaraladi. Buddizm ta'limotida esa nafsni yengish, sabr va mehr-oqibat orqali ruhiy najotga erishish targ'ib etiladi.

Qadimgi Xitoy falsafasida Konfutsiy axloqiy mukammallikni jamiyat barqarorligining asosi sifatida ko'rsatadi. Uning fikricha, agar inson o'zini tarbiyalasa, jamiyat ham tartibga keladi. Lao Szi asos solgan Daosizm esa insonni tabiat bilan uyg'unlikda yashashga chorlaydi.

Eramizdan oldingi VI asrdan boshlab Markaziy Osiyoda zardushtiylik diniy-falsafiy ta'limoti vujudga kelib, eramizning III asrigacha hukmronlik qiladi. Zardushtiylikning vatani sifatida Markaziy Osiyo (Baqtriya, Xorazm) va Eron (Midiya) ko'rsatiladi. Zardushtiylikda xalqni ezgulik va adolat g'oyalariga da'vat etish, hayotbaxsh an'alarini shakllantirish, dehqonchilik va shahar madaniyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etgan. Yer dumaloq bo'lib, atrofi okean bilan o'ralgan va ob-havo, yil fasllari bilan bog'liq bo'lgan etti qismdan iborat, bu Bobilliklarning etti shamollar haqidagi qadimgi tasavvurlardan iqtibos qilingan. Osmon to'rt doiradan tashkil topgan: yulduzlar doirasi, oy doirasi, quyosh doirasi va jannat doirasi yoki nur makoni. Yulduzlar, Oy va Quyosh xudo Axura Mazdaning badani sifatida tasvirlanadi. Zardushtiylik ta'limotiga ko'ra tabiat va jamiyat Yovuzlik Axriman yoki Angra-Man'yuning kurashidan iborat bo'lib, pirovardida 3000 yildan so'ng yaxshilik g'olib chiqib haqiqat adolat davri keladi.

Islom uyg'onish davrida esa Sharq falsafasi yanada yuksaldi. Abu Nasr Farobiy, Ibn Sino, Beruniy kabi mutafakkirlar aql, ilm va ma'naviyat uyg'unligini asoslab beradilar. Farobiy "Fozil shahar" asarida komil inson boshchiligidagi adolatli jamiyat modelini yaratdi. Ibn Sino esa ilmni inson kamolotining eng muhim vositasi sifatida baholadi. Islom dinining ontologik va gnoseologik masalalarni talqin qilishda, ularga teologik va aqidaviy yondashuvlar, shuningdek siyosiy masalalarda islomga e'tiqod qiluvchilar bir necha oqim va yo'nalishlarga bo'linib ketganlar.

Xulosa

Sharq falsafasi insoniyat tafakkuri tarixida chuqur iz qoldirgan boy ma'naviy merosdir. U nafaqat borliq va hayot mohiyatini anglashga, balki jamiyatning axloqiy, ma'naviy va ijtimoiy taraqqiyotiga ham katta ta'sir

ko'rsatgan. Sharq mutafakkirlari inson kamoloti, adolat, ilm-ma'rifat va ma'naviyatni jamiyat rivojining asosiy omili sifatida talqin qilganlar. Shunday ekan, Sharq falsafasini o'rganish nafaqat tarixiy merosini anglash, balki zamonaviy jamiyat taraqqiyotining ma'naviy asoslarini mustahkamlash uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Immanuel Kant. Sof aql tanqidi. – Toshkent: Akademnashr, 2019.
2. Georg Wilhelm Friedrich Hegel. Ruh fenomenologiyasi. – Toshkent: Sharq, 2018.
3. René Descartes. Metod haqida mulohazalar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015.
4. Jean-Paul Sartre. Ekzistensializm — bu gumanizm. – Toshkent: Tafakkur, 2020.
5. Abu Ali ibn Sino. Donishnoma. – Toshkent: Fan, 2008.
6. Falsafa: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik / Mas'ul muharrir A. Qodirov. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
7. Sharq va G'arb falsafasi tarixi. – Toshkent: Akademnashr, 2022.